

# Doktorantlar hamda tayanch doktorantlar faoliyati monitoringi o'tkazildi

Joriy yilning 27-iyun – 8-iyul kunlari Fanlar akademiyasi Ilmiy kadrlar boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydag'i 304-sonli "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tizim tasarrufidagi ilmiy tashkilotlarda tahsil olayotgan doktorantlar hamda tayanch doktorantlar faoliyati monitoringi o'tkazildi.





Monitoring jarayonida tashkilot rahbariyati ishtirokida 551 nafar tayanch doktorant (PhD), 59 nafar doktorantlar (DSc) bilan tasdiqlangan shaxsiy ish rejalarining bajarilishi, ilmiy faoliyatda mavjud bo'lgan muammo va takliflar to'g'risida suhbatlar o'tkazildi.